

## **Kadrlar va shaxsiy tarkib bilan ishlash boshqarmasining asosiy vazifalari:**

vazirlik tizimida kadrlarni tanlash va joy joyiga qo'yish bo'yicha rahbarlik qilish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 14 yanvardagi 257-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan oddiy askar va serjantlar hamda ofitserlar tarkibi lavozimlariga munosib fuqarolarni harbiy xizmatga chaqirilishini tashkillashtirish;

kadrlar tarkibi soni va sifatini tizimli tahlilini olib borgan holda vazirga axborot berish va takomillashtirilishi bo'yicha takliflar kiritish;

shaxsiy tarkib bo'sh lavozimlarni to'ldirish bo'yicha rejalashtirish tadbirlarni amalga oshirish;

vazirlik tizimidagi harbiy xizmatchilar bilan harbiy xizmatni o'tash bo'yicha kontraktlarni o'z vaqtida tuzish va nazorat qilish;

harbiy xizmatchilarga yakka tartibda shaxsiy guvohnomalarini tarqatish, pasportlar va boshqa xujjatlarni qat'iy xisob varaqalarini saqlash va hisobotini yuritish;

harbiy xizmatchilarni xuquqlarga rioya qilishlarini nazorat qilish ularning oila a'zolari va ishchi xizmatchilarning ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash;

vazirlik harbiy xizmatchilari, xizmatchilar va ishchilarini rag'batlantirish va intizomiy jazo ta'zirlar hisobini olib borish;

vazirlik tizimi harbiy xizmatchilari xizmatchilar va ishchilarining shaxsiy hujjatlar yig'ma jildlarini yuritish va rasmiylashtirish;

harbiy xizmatchilar, xizmatchilar va ishchilar hamda ularning oila a'zolari shu bilan birga fuqarolarning shaxsiy masalalari bo'yicha ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqish;

## **KvaSHTBIBning asosiy funksiyalari:**

boshqarma ishini rejalashtirish, unga buysinuvchi harbiy xizmatchi va xizmatchilarni o'rgatish va tarbiyalash;

vazirlikda mavjud bo'lgan bo'sh o'rinlarni bitim asosidagi harbiy xizmatchi va xizmatchilar bilan tanlov asosida to'ldirish va ularni joy-joyiga quyish bo'yicha taklif kiritish;

kadrlar bo'yicha tezkor xizmat topshiriqlar samarali bajarilishini ta'minlash, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, tarbiyalash va o'qitish, ularni ijtimoiy - huquqiy muhofazasi borasida chora tadbirlarni amalga oshirish. Manfaatdor boshqarma va bo'limlar bilan birgalikda kadrlar bilan ishlashning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish. O'zbekiston Respublikasi Davlat boshqaruvi organlari va idoralari, vazirlik rahbariyati va hay'atiga o'rnatilgan tartibda kadrlar bilan ishlash bo'yicha ma'lumotlar va xujjatlarni tayyorlash;

kadrlar tarkibi soni va sifatini tizimli tahlilini olib borgan holda vazirga axborot berish va takomillashtirilishi bo'yicha takliflar kiritish;

vazirlik hududiy va tarkibiy tuzilmalariga kadrlar bilan ishlashni doimiy nazoratini yo'lga quyish va amaliy yordam ko'rsatish;

kadrlar bilan ishlash tajribasini tashkillashtirish, umumlashtirish, joriy qilish va singdirish;

harbiy xizmatchilarni xizmatni o'tash to'g'risidagi kelgan taqdimnomalarni va qabul qilingan qarorlarni echimini o'z vaqtida ko'rib chiqish;

boshqarma va quyi kadrlar organlarida ish faoliyatida qonunlarga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash;

shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilarga navbatdagi harbiy unvonlarni berishni o'z vaqtida nazoratini va monitoringini olib borish.